



Teaching speech activity types through an integrated approach in French language instruction

Ezoza ATAMIRZAEVA ¹

Namangan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised

form 15 August 2025

Accepted 15 September 2025

Available online

05 October 2025

Keywords:

French language,
teaching methodology,
integrated approach,
interactive methods,
innovative technologies,
types of speech activity,
communicative competence.

ABSTRACT

This article examines the methodology of teaching French through an integrated approach to developing different types of speech activities. It highlights the importance of introducing innovative, interactive methods into the educational process and discusses how such approaches enhance the effectiveness of language learning. The author compares traditional and non-traditional teaching methods and emphasizes the advantages of modern pedagogical technologies. The study analyzes the role of interactive techniques — Case Study, Brainstorming, Zigzag, Pantomime, and Round Table — in fostering student engagement and communication skills. The integrated teaching approach is shown to help students develop listening, speaking, reading, and writing competencies in a balanced way, thereby improving overall communicative performance in French language acquisition.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss5-pp209-216>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Fransuz tili o'qitishda nutq faoliyati turlarining integratsiyalashgan yondashuv asosida o'qitish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

fransuz tili,
o'qitish metodikasi,
integrativ yondashuv,
interfaol metodlar,
innovatsion texnologiyalar,
nutq faoliyati turlari,
kommunikativ
kompetensiya.

Ushbu maqolada fransuz tilini o'qitishda nutq faoliyati turlarini integratsiyalashgan yondashuv asosida o'qitish metodikasi tahlil qilinadi. Maqolada ta'lim jarayoniga innovatsion va interfaol metodlarni joriy etishning ahamiyati, ularning samaradorligini oshirish omillari, shuningdek, o'quvchilarning nutq faoliyatini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'rnini yoritilgan. Muallif an'anaviy va noan'anaviy

¹ PhD, Senior Lecturer, Namangan State Institute of Foreign Languages.
E-mail: ezozaatamirzayeva@gmail.com

o'qitish metodlarini taqqoslab, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning afzalliklarini asoslaydi. Shuningdek, interfaol metodlar — "Keys-stadi", "Aqliy hujum", "Zig-zag", "Pantomima", "Davra suhbat" kabi yondashuvlarning o'quvchilarni faollashtirishdagi roli tahlil qilinadi. Integratsiyalashgan ta'lim yondashuvi yordamida o'quvchilarda tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish kompetensiyalari uyg'un rivojlantirilishi ko'rsatib berilgan.

Обучение видам речевой деятельности на основе интегрированного подхода при преподавании французского языка

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:
французский язык,
методика преподавания,
интегрированный подход,
интерактивные методы,
инновационные
технологии,
виды речевой
деятельности,
коммуникативная
компетенция.

В данной статье рассматривается методика преподавания французского языка на основе интегрированного подхода к видам речевой деятельности. Автор анализирует значимость внедрения инновационных и интерактивных методов в образовательный процесс, а также их влияние на повышение эффективности обучения. Сравниваются традиционные и нетрадиционные методы преподавания, обосновываются преимущества современных педагогических технологий. Особое внимание уделено интерактивным методам обучения, таким как «Кейс-стади», «Мозговой штурм», «Зигзаг», «Пантомима», «Круглый стол», способствующим активизации студентов и развитию их коммуникативных навыков. Отмечается, что интегрированный подход обеспечивает гармоничное развитие навыков аудирования, говорения, чтения и письма, что повышает уровень речевой компетенции обучающихся.

KIRISH

Bugungi kunda har bir sohaning takomillashishi, rivojlanishi uchun xilma -xil metodlar qo'llanilayotganidek, ta'lim-tarbiya sohasida ham turli xil metodlardan foydalanilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2018-yil 5-martda Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi Is'hoqxon Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashgan maktab-internatiga tashrifi chog'ida hozirgi globallashuv davrda bir necha zamonaviy chet tillarni o'rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, dunyo miqyosidagi raqobatdosh, yetuk, bilimli, intellektual kadrlarni tayyorlash, zamonaviy chet til o'qitish metodikasini rivojlantirish kabi muhim vazifalarni ta'kidladilar. Shu tufayli ta'lim jarayoniga yangicha innovatsion va interfaol metodlarni joriy etish uzluksiz ta'lim tizimining asosiy maqsad-vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'qitishning interfaol usullarini bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga faol jalb qilingan bo'ladilar, ular o'rganayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol

darslarda o'qituvchining o'rni qisman talabalarining faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda til ta'limiga innovatsion texnologiyalarni keng miqyosida joriy etish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Xususan, D.Bespalko, L.Kamenskiy, I.Pestalossi, J.Yo'ldoshevlarning ilg'or pedagogik texnologiya, innovatsiya, axborot texnologiyasining va unda inson omili munosabat qo'yilgan talablar usul va uslublari pedagogik tizimning natijasini ozgina bo'lsa ham samarali tomonga siljishga qaratilgan bo'lib, hozirgi 50-60% dan (pedagogik tizimning maksimal natijasi) hech bo'lmaganda 5-10% ga o'stirishga olib kelishidan iborat.

Pedagogikaga oid ilmiy izlanishlarda o'quv fanlarini o'qitishdagi tarqoqlikni bartaraf qilishga qaratilgan shakl, metod hamda vositalar tizimini, ularning asosi bo'lgan o'qitish va tarbiyalash jarayoni metodologiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dastlab "metod" tushunchasi haqida. "Metod (yun. "metodos" - bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) -voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli degan ma'noni anglatadi". Metodik adabiyotlarda "o'qitish metodlari", "ta'lim metodlari" deb yuritiladigan bu tushunchani "o'rgatish metodlari" deb atash ma'qul tuyuladi. Chunki "ta'lim" butun o'quv jarayonini ifodalaydigan tushunchadir. "O'qitish" tushunchasi esa "o'qishga o'rgatish" degan ma'noni ham beradi. Didaktikada metod deyilganda o'qituvchining o'quv dasturi asosida, ma'lum maqsadni ko'zlagan holda o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil qilish va boshqarishga yo'naltirgan faoliyati tushuniladi. I. Rahmonov ta'rificha, "Metod - maqsad sari yo'naltirgan sistema bo'lib, u bir - birlari bilan shartli bog'langandur".

B.Belyayev ta'lim metodi haqida o'qituvchining o'quvchilarga bilim berish usuli va yo'li hamda o'quvchilarning bu jarayondagi o'quv faoliyatining birligi tushuniladi deb ta'kidlagan.

J.Jalolov "metod" atamasiga "ta'limda usullar yig'indisi va ta'limning yo'nalishi" deb ta'kidlaydi [2].

Ta'lim jarayoniga zamonaviy metodlarni muvaffaqiyatli qo'llashning yana bir omili – bu muayyan, yaxlit ta'limiy jarayonni oldindan rejalashtirish, talabalar tomonidan o'zlashtiriladigan nazariy va amaliy bilimlar, ko'nikma va malakalar darajasini tashxislash hamda ta'lim maqsadini muvaffaqiyatli xulosalanishini oldindan bashorat qilish iboratdir. Darsni oldindan rejalashtirish integratsiyalashgan ta'lim jarayonini samarali bo'lishida yetakchi o'rin egallaydi.

Darsni oldindan loyihalash o'quv rejasi, dasturlar, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa qo'llanmalar muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

B.Farberman fikricha, o'quv jarayonini loyihalash ta'limning umumiy maqsadlari va mazmuni o'quv maqsadlari, o'qitish va baholashdan tashkil topadi.

Dars berishning bir necha xil metodlari mavjud:

an'anaviy metod: darsning og'zaki bayoni, suhbat, darslik bilan ishlash, namoyish qilish, amaliy mashg'ulot, leksiya;

noan'anaviy metod: konferensiya, seminar, munozara, texnik vositalardan foydalanish, kasbga bog'lash, yozma ishlar, test, "O'ylab top" so'z o'yini;

umumiy metod: tushuntirish, namoyish etish, muammoni o'qitish, taqqoslash, izlanish;

faol metod: fikrlashga majburlash, guruhlarga bo'lish, kuzatuv, ish qog'ozlari, tashrif, anketa savollari, ko'rgazmalar, hikoya qilish, sahnalashtirish, audio fayllarni tinglash, internetdan foydalanish, o'z-o'zini attestatsiya qilish; psixologik metod: "aqliy hujum", "VENN diagrammasi", "zanjir" metodi, "klaster" metodi "kubik burchaklari", "toifali sharh", "ikki qismli kundalik", "insert" metodlari [1].

Biroq, Fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida nutq faoliyati turlarining integratsiyalashgan yondashuv asosida o'qitishda aniq bir metod yoki tamoyildan foydalanilish mushkul, chunki bu jarayon psixofiziologik jarayon bo'lib, til o'rganuvchining yoshi, qiziqishi va undagi til o'rganish qobiliyatiga bog'liqdir. Shuning uchun ham fransuz tili darslarida nutq faoliyati turlarining integrativ yondashuv asosida o'rgatish umumiy metodik tamoyillariga asoslanadi.

Integratsiyalashgan ta'limning mohiyati shundan iboratki, unda umumiy mavzular bo'yicha kerakli darslar rejalashtirilishi va ular turli o'qituvchilar tomonidan turli vaqtlarda o'tilishi ham mumkin. I.Podlasiyning integratsiyalashgan darsda bir mavzu atrofida bir necha fanlar materiallari birlashtirilgan bo'ladi deb tushuntiriladi. Biz ham bu fikrni ma'qullaymiz. Har qanday integratsiyalashgan darsda asosiy ustuvor fan bo'ladi, atrofidagi fanlar esa maqsadni amalga oshirish uchun vosita bo'ladi, lekin shunday bo'lsada, barcha fan o'z mustaqilligiga ega bo'ladi va darslikdagi material to'liq qamrab olinadi. Masalan, Fransuz tilida sifatlar (les adjectives) mavzusi qiyin bo'lganligi sabab biz uni talabalarga tushuntirishni qulay va oson yo'lini o'ylab topamiz. Bunda integratsiyalashgan darslar juda qo'l keladi. Biz fransuz tili fanidan o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan sifatlar mavzusini ingliz tili nazariy grammatikasidagi sifatlar (Adjectifs) mavzusi bilan integratsiyalashtiramiz, ikkita tildagi artikl tushunchasini qiyoslash orqali o'rgatamiz. Xuddi shu usulni Fonetika yoki Grammatika, Jahon adabiyoti kabi darslarida ham qo'llasa bo'ladi.

Demak, har bir bosqich bir - biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularda izchillik mavjud. Bu esa o'quv jarayonini samarali va muvaffaqiyatli ta'minlashga imkon yaratadi. Ta'lim oluvchilarning darsdagi faoliyatini faollashtirish, ularning o'zlashtirish darajalari hamda ularda ma'lum faoliyat bo'yicha malaka va ko'nikmalarni hosil qilish darsda foydalanadigan metodlarga bog'liq.

D.Hidoyatova zamonaviy metodlarga quyidagicha ta'rif bergan: "Zamonaviy metodlar –ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi ta'lim jarayonining markazida bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi talaba esa butun jarayon davomida ishtirok etadi". Bunday yondashuvlarni quyidagi guruhlarga ajratadi:

- 1) ta'lim samarasi yuqori bo'lgan o'qish –o'rganish;
- 2) ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirish;
- 3) ilgari orttirilgan bilimni e'tiborga olinishi;
- 4) o'qish tezligini ta'lim oluvchi ehtiyojiga moslashtirish;
- 5) ta'lim oluvchining tashabbuskorligini qo'llab - quvvatlash;
- 6) amalda bajarilishi orqali o'rganilishi;
- 7) ikki taraflama fikr mulohazalarni e'tiborga olinish; [40; 68-b].

Darslarda metodlardan foydalanish ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni qaror toptiradi, ularda tanqidiy, mustaqil va ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Ta'lim loyihasi bevosita ta'lim sharoitida amalga oshiriladi. Loyihalash integratsiyalashgan ta'lim jarayonining samarali bo'lishida yetakchi o'rin tutadi. Ta'lim

loyihasini ishlab chiqish jarayoni, ayniqsa, davlat standartlari talablari asosida tahlil qilish, muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda ta'lim mazmunining turli elementlari, masalan, bilim, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi va munosabatlar, dastur va darsliklardagi taqdimot usullarini chuqur tahlil qilish lozim. Dastlabki tahlil, o'rganish maqsadlari, ta'limning didaktik maqsadlari va pedagogik jarayonning o'ziga xos jihatlarini belgilashni o'z ichiga oladi.

Maqsadlarni amalga oshirish, uy ishlari va test savollari, reyting nazorati, hamda o'qitish usullarining etalon darajasini belgilash orqali, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bularning barchasi, natijada, ta'lim jarayonining samarali modelini yaratish imkonini beradi. Bu model talabalarga yuqori sifatli ta'lim berishni va bilimlarni mukammal o'zlashtirishni ta'minlash uchun zarurdir.

R.Tajiyeva o'quv mashg'uloti jarayonining loyihasini ishlab chiqishda quyidagi ishlarga alohida e'tibor qaratadi: "....o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan talabalarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil bajariladigan ishlarni, ularni bajarish tartibi, paytini e'lon qilish, mavzuni to'liq o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berish, o'zlashtirish me'yorlarini aytib berish, talabalarni faol, mustaqil faoliyatga rag'batlantirish, ular diqqatini bo'lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o'rganish zarurligini aytib berish, bilishga qiziqish uyg'otish, o'qish-o'rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg'otish, emotsiyalar, tafakkur hodisalari, bilimlarni o'quv holatlariga tatbiq etish yo'llari orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to'liq o'zlashtirishga oid o'zgarish, qo'shimcha, tuzatishlarni belgilash, bo'lim yoki mavzu bo'yicha to'plangan bilimlarga ishlov berish" [3] kabilar.

O'. Tolipov o'quv mashg'uloti jarayonining loyihasini ishlab chiqishning 8 ta bosqichini taklif qiladi: 1-bosqich. Mavzuga doir materiallarni yig'ish, 2-bosqich. Ta'lim maqsadi va vazifasini belgilash, 3-bosqich. Ta'lim mazmunini ishlab chiqish, 4-bosqich. Ta'lim shakli, metod va vositalarini tanlash, 5-bosqich. Vaqt o'rnini belgilash, 6-bosqich. Mashqlar tizimini ishlab chiqish, 7-bosqich. O'quvchilar faoliyatini nazorat qilish va test tizimini ishlab chiqish, 8-bosqich. Loyihani o'quv jarayoniga tatbiq etish [5].

Har ikkala tadqiqotchining fikrlaridan kelib chiqib, o'quv mashg'uloti jarayoni bosqichlari bir - biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'quv jarayonini samarali va muvaffaqiyatli ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

Fransuz tili darslarida talabalarni faollashtirish, yangi olingan bilimlarni tez o'zlashtirishga yo'naltirish interfaol metodlar orqali amalga oshadi. Interfaol so'zi inglizcha Interact fe'lidan kelib chiqqan. U inter - o'zaro, act - harakat qilaman, ta'sir qilaman mazmun, ma'nosini anglatadi. Bu metod talabalarining bir-biriga ta'siri, fikri mulohazasi, faolligi orqali mustaqil muloqotga o'rgatish degan ma'noni beradi. Interfaol ta'limda monolog, diolog ayniqsa polilog muhim bo'lib, aniq va oldindan aytsa bo'ladigan maqsadni, qulay shart-sharoit yaratishni nazarda tutadi. Bu metodning soni keyingi yillarda 60 dan oshib ketdi va ta'lim sohasida keng qo'llanilmoqda.

Boshqa metodlarga qaraganda, interfaol metod tinglovchilarning nafaqat o'qituvchi, balki o'zaro faollik va tinglovchilarning mashg'ulot jarayonida faolligini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi (1-jadval).

Zamonaviy metodlarning afzalliklari

№	Mualliflar	Metod va yondashuvlar	Afzalliklari
1	K. J. Bruton (C. J. Bruton)	Matnga yo'naltirilgan yo'riqnoma (Enseignement basé sur le contenu (EBC))	Matn yoki mavzu asosida tilni o'rganish talabalarda motivatsiyani uyg'otadi va kommunikatsiyaga kirishlarini birmuncha osonlashtiradi
2	J. Devey (J. Dewey)	Jamoa bo'lib tilni o'rganish (Apprentissage cooperative des langues (ACL))	Jamoa bo'lib tilni o'rganish metodi talabalarda jamoada erkin muloqot yuritish, o'z fikrini o'tkaza olish, uni isbotlash, bir-birini tinglash va o'zaro hurmat qilish imkonini beradi
3	I. Passov (E. I. Passov)	Kommunikativ tarzda tilni o'rgatish (Enseignement communicatifs des langues (ECL))	Kommunikativ tarzda tilni o'qitish talabalarda guruhda ishlash, o'z fikrini mustaqil bayon eta olish, bir birininglash, savol berish va unga mantiqan javob qaytara olish qobiliyatini rivojlantiradi
4	H. Palmer. A. Hornbi (H. Palmer. A. Hornby)	Og'zaki yondashuv va vaziyatli tilni o'qitish (L'approche orale et l'enseignement situationel de langue)	Mazkur yondashuv talabalarning turli xil vaziyatlarda fikrlarini qiyinchiliklarsiz bayon etishlari va duch kelgan muammolarga yechim topa olish imkoniyatini beradi
5	E. I Shnek (E. I. Schnek)	Kompetensiyaga yo'naltirilgan til o'qitish (Enseignement de langues basé sur le competences (ELBC))	Ushbu metod talabalarda kommunikativ kompetensiyani va uning komponentlari bo'lgan lingvistik, pragmatik, sotsiolingvistik, diskurs, sotsiomadaniy kompetensiyalarini egallashga yordam beradi.
6	T. Terrel (T. Terrel)	Tabiiy yondashuv (L'approche naturelle (AN))	Ushbu yondashuv tilni tabiiy o'rganishga qaratilgan bo'lib, turli xil kommunikativ mashq, o'yin va dialoglarni tuzish va ijro etish orqali kommunikativ kompetensiyaga erishiladi
7	J. Willis (J. Willis)	Mashq va topshiriqlarga yo'naltirilgan tarzda tilni o'qitish (Enseignements des langues basé sur les tâches (ELBT))	Mazkur metod tilni mashq va topshiriqlar yordamida o'rganishni taqozo etadi. Unda talabalar tanqidiy mushohada yuritishlari, mustaqil ishlashlari va og'zaki va yozma nutqni puxta egallashlariga olib keladi

N.Muslimov, M.Usmonboyeva, M.Mirsoliyevalar fikriga ko'ra Interfaol metodlarning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: "ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish, ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi, ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi, o'qish shiddatining ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi, ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab quvvatlanishi va amalda bajarish orqali o'rganilishi". Demak, darslarda interfaol metodlardan foydalanish ta'lim jarayonini samarali, qiziqarli va interaktiv qilishga yordam beradi. Interfaol metodlar o'quvchilarni faollikka chorlab, ularni fikr yuritishga, savol berishga va muammolarni mustaqil hal qilishga undaydi. Bu bilimlarni samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi.

O.Avlayev o'zining ta'lim metodlari qo'llanmasida ham bir qator interfaol metodlarni tavsiya etgan [3]. Jumladan, "Keys stadi" usuli, "Blits –so'rov" usuli, "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim". Qo'llanmada interaktiv metodlarning maqsadi, mashg'ulotni o'tkazish tartibi berilgan.

S.Xolbekova talabalarga fransuz tilini o'qitishda quyidagi interfaol metod va usullarni tavsiya etgan. Jumladan, "Tezkor javob" (Réponse rapide), "Chigil yozdi" ("Exercices d'échauffement") "Pantomima" (pantomime), "Hikoya zanjiri" (Une histoire de chaîne) "Rasmlar so'zlaganda" (Quand les images parlent) [4].

H.Tursunov o'z tadqiqot ishida interfaol metodlarning quyidagi turlarini tavsiya etgan: "Zip-zap", "Tanishtiruv", "Charxpalak", "Alifbo tushligi" kabilar [5].

F.Axrorova fransuz tili darslarida mavzularni yoritishda "Damino", "Mo'jizalar maydoni", "Konvert", "Sonlar tilga kirganda", "Bumerang", "Galereya", "BBB" usuli, "Kim ko'p biladi?", "5 daqiqa", usullari kabi metodlar bilan ishlansa, talabalar nafaqat mutaxassislik doirasida, balki chet tillarida (fransuz tili) ham mutaxassislik mavzularini bilishini ta'kidlaydi [6].

Chet tilni o'rgatishda ham ko'proq tanqidiy va ijodiy fikrlashga undaydigan va tafakkurni o'stiradigan interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Nutq faoliyati yillar davomida shakllanadi, yuqori ta'lim bosqichlariga chiqqan sari rivojlantirib va takomillashtirib boriladi. M.Gulyamova ingliz tilini o'qitishda 1- va 2-bosqich talabalarining nutq faoliyati turlarini rivojlantirish uchun Videotopismoq "Bilaman, bilishni xohlayman bilib oldim" metodi, "Davra suhbat", Baliq skeleti, "Muammo", "Zig-zag" kabi interfaol metod va usullarni tavsiya qilgan. Metodika fanida nutq faoliyati turlari bo'yicha quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari: o'qiganda 10%, tinglaganda 20%, ko'rganda va eshitganda 30%, bir-biri bilan muhokama qilganda 70%, hayotga bog'liq bo'lganda 80%, boshqalarga o'qitganda 95% ni tashkil etishi barcha tomonidan e'tirof etilgan.

G.Mayer esa 72 soatdan o'tganda ma'lumotni eshitish orqali qabul qilgandan so'ng tinglovchi xotirasida 10%, ko'rish orqali 20% munozarada 70 % amaliy imkoniyatlarda qo'llaganda 90 % axborot qolishini ta'kidlaydi [1].

Bu esa talabalarining nutq faoliyati turlarini rivojlantirishda va ularning faolligini oshirishda interfaol usullar va metodlar orqali darslarni tashkil qilish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkinligini isbotidir.

XULOSA

Integrativ metodlarni dars jarayonida qo'llash talabalarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni nutq faoliyatining barcha turlarini (tinglab tushunish, gapirish,

o'qish va yozuv) faol qo'llagan tarzda o'zaro muloqot jarayonida foydalanishdir. Integrativ metodlar nutq faoliyati turlarini uyg'unlashtirib qo'llashga va bu orqali talabalarning nutqiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Avlayev O., Jo'rayeva S. Mirzayeva S. Ta'lim metodlari. T.: Navro'z nashriyoti. -2017-yil. 207-b.
2. Botirova D., Xudoyberdiyev Sh.. Boshlangich sinflarda integratsiyalashgan darslarni maqsad va vazifalari hamda fanlararo aloqalarning ahamiyati. Yangi O'zbekistonning umidli yoshlari. 1(4)-son 2022-yil 28-may. 179-b.
3. Jalolov J.J Chet til o'qitish metodikasi. Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri.-Toshkent.: -2012.-432-b.
4. Mavlonova R.A.Boshlang'ich ta'limni integratsiyalashgan pedagogikasi. – Toshkent, Ilm ziyo. 2011-yil 215-b.
5. Sayidahmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.: O'ZMU qoshidagi OPI, 2003.
6. Shabanov J. Turk tili o'qitish metodikasi va texnologiyasi.Toshkent. 2009.- 52 b.